

**BUXORO MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK - TEKNOLOGIYA INSTITUTI

ZAKIRYAYEVA NODIRA G'AFUROVNA

**MILLIY USLUB VA DEKORATIV ELEMENTLARNI TADQIQ QILISH
HAMDA ZAMONAVIY KIYIMLARDA QO'LLASH (MEHMONXONA
XODIMLARI OFIS KIYIMI MISOLIDA)**

05.06.04–Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническом
наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Zakiryayeva Nodira G'afurovna

Milliy uslub va dekorativ elementlarni tadqiq qilish hamda zamonaviy kiyimlarda qo'llash (mehmonxona xodimlari ofis kiyimi misolida)..... 3

Закиряева Нодира Гафуровна

Исследование национального стиля и декоративных элементов с целью их применения в современной одежде (на примере офисной одежды работников гостиниц) 19

Zakiryayeva Nodira Gafurovna

Study of national style and decorative elements with a view to using them in modern clothing (using the example of office clothing for hotel workers)..... 35

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 38

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ZAKIRYAYEVA NODIRA G'AFUROVNA

**MILLIY USLUB VA DEKORATIV ELEMENTLARNI TADQIQ QILISH
HAMDA ZAMONAVIY KIIYIMLARDA QO'LLASH (MEHMONXONA
XODIMLARI OFIS KIIYIMI MISOLIDA)**

05.06.04–Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4272 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tashpulatov Salix Shukurovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muminova Umida Toxtasinovna
texnika fanlari doktori, professor

Choriyeva Muhabbat Muxammadovna
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/29.10.2021.T.101.03 raqamli Ilmiy Kengashning «__» _____ 2024 yil soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15 uy, Tel.: +998-65-223-78-84, faks: +998-65-223-78-84; E-mail: bmti_info@edu.uz, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ma'muriy binosi).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15 uy. Tel. (8-365) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» ____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «__» ____dagi № __ -raqamli reestr bayonnomasi).

X.Q.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

R.X.Nurboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, texnika fanlari nomzodi, professor

S.S.Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari
nomzodi, professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori dissertatsiyasining annotatsiyasi (PhD))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida tikuvchilik mahsulotlarining yuqori sifatini ta'minlash tikuvchilik ishlab chiqarishi bosqichlarida amalga oshiriladigan vazifalarning sifati bilan chambarchas bog'liq. Tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llashga hamda uning natijasida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotning yuqori sifatli va jahon standartlari talablariga javob berishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda "... to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini davlat tomonidan keng miqyosda qo'llab-quvvatlash orqali sohaning eksport salohiyatini 5 milliard AQSH dollariga yetkazish, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 foizdan 81 foizga oshirish, 35 mingta bo'sh ish o'rinlarini to'ldirish"¹ bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Fransiya, Italiya, Xitoy, Turkiya, Rossiya kabi davlatlari tikuvchilik sanoatida keng assortimentdagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Tikuvchilik mahsulotlarining yangi assortimenti turlarini yaratish, ularning sifatini oshirish, xom ashyo sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga joriy etish orqali uning tannarxini pasaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan korporativ kiyimlarini ishlab chiqishda tizimli loyihalash tamoyillariga asoslanish va resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoda tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarga ta'sir etuvchi muhim omillarni aniqlash asosida ilmiy asoslangan usullar va texnologiyalar ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, turli kompaniyalar uchun ishlab chiqiladigan ofis kiyimlari bir tomonda foydalanuvchilarga qulaylik yaratish va ekspluatatsiya vaqtini uzaytirish, ikkinchi tomonda kompaniya imidjini ko'tarish uchun loyihalash texnologiyalariga zamonaviy yondashuv masalarini hal etish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Shu bilan birga, kiyim sifatini ta'minlash ta'minlash uchun import o'rnini bosuvchi yuqori gigiyenik va ekspluatatsion xossalarga ega mahalliy materiallardan foydalanish, ilmiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqarish, mahsulotlarni tannarxini kamaytirish va ichki bozor ehtiyojlarini to'liq qonirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda keng assortimentli va sifatli to'qimachilik va tikuvchilik-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, ularni mahalliy xomashyo asosida rivojlantirish, shu jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlar olib borilmoqda. 2023 yil 11 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida"gi 158-sonli Farmonda¹ "... milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va o'sishni yuqori sur'atlarini ta'minlash,... sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ming yillik tarixga ega bo'lgan, halqimizning turmush tarzidan kelib chiqadigan,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston-2023 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni

mintaqamizning iqlimiy sharoitlariga mos keladigan milliy kiyim shakllarini tashkil etadigan konstruktiv va dekorativ elementlarni, milliy matolar va ornamentlarni qoʻllangan holda yuqori sifatli va zamonaviy ofis kiyimlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” F-60-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi “Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qoʻshilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini ragʻbatlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PF-53-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 23 fevraldagi “Oʻztoʻqimachilik sanoat» uyushmasining “Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj sohasini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlarini shakllantirish va undan foydalanish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” 93-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs tejankorlik» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mazkur yoʻnalishdagi masalalarni yechishda horijiy olimlar P.Bajoj, R.V.Chavan (AQSh), Deny R.R., Higgenbotham R.S., J. Ralf (Germaniya), A.S.Golxman (Ukraina), A.V.Ilin, R.N.Selms V.N. Nekrasova, E.E.Kuznesova, A.A.Aleshina, O.V.Larin, V.V.Naxratov, O.A.Belokurova, I.M.Lipatova, I.V.Nujdina, L.I.Makarovalar (Rossiya) shugʻullanishgan. Milliy xalq kostyumi asosida zamonaviy kiyimlarni loyihalash boʻyicha M.A.Nurjasarova (Qozogʻiston), M.I.Alibekova, F.A.Kolieva, A.S.Kamalieva, A.Yu.Moskvin, L.Yu.Maxotkina (Rossiya) va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Respublikamizda oʻzbek anʼanaviy liboslari va dekorativ elementlarini oʻrganishga X.X.Kamilova, G.K.Xasanboeva, S.Sh.Tashpulatov, F.Ataxanova, O.A.Suxareva, G.A.Pugachenkova, N.P.Lobacheva, T.A.Abdullaev, D.A.Faxriddinova, Z.I.Raximova, A.K.Pisarchik, M.A.Bikjanova, R.Rassudova, G.Chepeleveskaya, N.S.Sodiqova, G.K.Yuldasheva, D.Jabborova, U.S.Raxmatullaeva, V.A.Chursina, P.A.Goncharova, L.Sh.Shamuxitdinova, Sh.G.Djuraeva va boshqalar katta hissa qoʻshgan. Milliy matolarning retrospektiv tadqiqotlariga X.A. Alimova, P.X. Siddiqov, G. Valyev kabi olimlarning ilmiy ishlari bagʻishlangan. Oʻzbek anʼanaviy kashtadoʻzlik sanʼati Sh.K.Abdullaeva, K.Akilova, Z.J.Alieva, Q.J.Jumaev ishlarida tadqiq qilingan. X.A.Alimova, P.S.Siddiqov, G.Valyev kabi olimlarning ilmiy ishlari bagʻishlangan. Oʻzbek anʼanaviy kashtadoʻzlik sanʼati Sh.K.Abdullaeva, K.Akilova, Z.J.Alieva, Q.J.Jumaev ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida yaratilgan vositalar muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qoʻllanilib kelinayotgan boʻlsada, ammo milliy qadriyatlar timsoli boʻlgan anʼanaviy milliy liboslar va bezak elementlarini qayta ishlash, yaʼni stilizatsiya qilish orqali foydalanilgan xolda, yuqori darajada sanʼat

asari sifatida zamonaviy klassik uslubdagi ofis kiyimlarini loyixalash va ularda bezak elementi sifatida qo'llash, bezakning koloristik xususiyatlarini ta'minlashga qaratilgan va dekorativ bezak elementlarini funksional vazifalarini bajaruvchi modifikatsiyalangan buyumlarga almashtirish bilan an'anaviy uslub elementlaridan foydalanib zamonaviy ofis kiyimini yaratish, ishlab chiqish va tadqiq etish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Germaniyaning Volkswagen Stiftung fondining "Современность традиций: устойчивость узбекского национального наследия как культурный и экономический ресурс" mavzusidagi halgaro granti va 69-24 raqamli «Mehmonxona xodimlari ofis kiyimini ishlab chiqish» mavzusidagi xo'jalik shartnoma doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: zamonaviy liboslar uchun (mehmonxona xodimlari ofis kiyimi misolida) badiiy va konstruktiv yechimlarni yaratishda an'anaviy o'zbek liboslari va bezak elementlaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

an'anaviy o'zbek milliy libosining konstruktiv hamda badiiy-dekorativ yechimlarini tahlil qilish va ularning shakllanishining asosiy bosqichlarini folklor uslubi rivojiga ta'sirini aniqlash;

o'zbek milliy libosining va xorijiy davlatlardagi mehmonxona xodimlari ofis kiyimlarini konstruktiv, badiiy-dekorativ elementlari tahlili asosida ofis kiyimiga qo'yiladigan talablarni shakllantirish;

tarixiy-kartografik tadqiqotlar asosida o'zbek milliy liboslaridagi milliy naqshlarni badiiy-dekorativ yechimining estetik xarakterini o'rganish va tizimlashtirish;

an'anaviy o'zbek milliy libosining konstruktiv va dekorativ tamoyillarining ijobiy xususiyatlaridan foydalangan holda mehmonxona xodimlari ofis kiyimini ishlab chiqish, tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni korxonada sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarishga joriy etish va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida o'zbek milliy an'anaviy kiyimi olingan.

Tadqiqot predmeti o'zbek milliy liboslarining konstruktiv va dekorativ elementlari asosida zamonaviy ofis kiyimlarini ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy-texnik axborotni umumlashtirishning analitik usullari, matematik statistika usullari, strukturaviy tahlil, eksperimental natijalarni rejalashtirish va qayta ishlash usullari, kompyuter grafikasi, eksperimental to'qimachilik materialshunosligi usullari, matematik modellashtirishning asosiy tamoyillari, mantiqiy tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

asosida mehmonxona xodimlari ofis kiyimining bezak elementlarini qo'llash imkoniyatlarini beruvchi materiallari va konstruksiyasiga mos ravishda rangi, fakturasi, tikuv buyumining asosiy kislari bo'lgan old bo'lak funksional-konstruktiv bo'linmalari, shuningdek old adip, latskani va yoqa kengligi kabi

qismlariga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan;

mehmonxona xodimlarining harakatlari erkinligini ta'minlaydigan, milliy an'analar va zamonaviy talablarni o'zida mujassam etgan ofis kiyimining old va ort detallari bilan yaxlit bichilgan yengni yuqori qirqimining bo'yin asosi nuqtasiga nisbatan hosil qiladigan qiyalik burchagi qiymatini o'zgartirish asosida "yeng-o'miz" konstruktiv tugunining takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ofis kiyimini orqa kengligiga, ko'krak aylanasi beriladigan qo'shimcha haqlar qiymati, yaxlit bichilgan yengni qiyalik burchagi kabi konstruktiv parametrlarining kiyimning tashqi dinamik mosligiga bog'liqligining regressiya tenglamalari va matematik modellari ishlab chiqilgan hamda ular asosida orqa yelka kengligi, ort tomondan bo'yin nuqtasidan bel chizig'i gacha tana uzunligi, II- chi ko'krak aylanasi kabi optimal konstruktiv parametrlar aniqlangan;

milliy naqshlarning stilizatsiyalashgan shakllari yaratilgan va zamonaviy ofis kiyimining old adibi, latskani kabi detallarida ratsional joylashuvi kiyim qismlarining geometric o'lchamlariga mosligini ta'minlash uchun mashstablash usuli bilan ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mehmonxona xodimlari ofis kiyimi misolida milliy an'analarni zamonaviy kiyimda qo'llash orqali korxonaning korporativ uslubiga mos ofis kiyim modellari ishlab chiqilgan;

iste'molchilarning ehtiyojlari va milliy kiyim bichimi xususiyatlaridan kelib chiqib, ish jarayonida xodimlarning harakat erkinligini ta'minlash maqsadida ofis kiyimining optimal konstruksiyasi ishlab chiqilgan, buning natijasida mehmonxona xodimlarining mehnat sharoitlari yaxshilangan va mehnat unumdorligi oshgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida shakllantirilgan ilmiy tamoyillar, xulosalar va tavsiyalarning ishonchliligi va izchilligi nazariy hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari, approbatsiya va joriy etishning ijobiy natijalari bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek milliy kiyimlarining rivojlanishining retrospektiv tahlili asosida milliy kiyim bichimining ijobiy xususiyatlarini aniqlash, rivojlangan xorijiy davlatlar mehmonxona xodimlari kiyimini o'rganish, iste'molchilar imtiyozlarini inobatga olgan holda zamonaviy ofis kiyimining takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish, ergonomik izlanishlar asosida optimal konstruktiv parametrlarni aniqlanganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ofis kiyim qismlarini ishlab chiqishda uning sifatini ta'minlaydigan va xarajatlarni minimallashtiradigan, kiyim qismlariga milliy bezak elementlarini qo'llash inkoniyaini beradigan loyihalash texnologiyasini ishlab chiqish imkoniyatidadir. Ishlab chiqilgan islanmalar kiyim bo'laklarning shaklini mustaxkam shaklini saqlash, kiyim detallarining sifat ko'rsatgichlarini oshirish uchun foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yuqori sifati bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: milliy kiyim bichimlari va ulardagi naqshlar turlari, ularning kiyim sirtida joylashuvi haqidagi mavjud

adabiyotlar, muzey eksponatlarini o'rganish hamda milliy naqshlarni stilizatsiyalash va ularni zamonaviy kiyimda qo'llash bo'yicha olingan natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sanoat namunasiga 2 patent olingan (№SAP 02378, 31.01.2023 y. «Mexmonxona xodimlari uchun erkaklar ofis kiyimi to'plami» hamda № SAP 02377, 31.01.2023 y. «Mexmonxona xodimlari uchun ayollar ofis kiyimi to'plami»). Natijada mexmonxona xodimlari uchun milliy an'analarni va qadriyatlarimizni o'zida aks etgan, mehmonxona imidjiga mos keladigan zamonaviy sifatli ofis kiyimlari bilan ta'minlangan.

Milliy an'analar asosida mehmonxona xodimlari kiyim komplektlari va ularning konstruktorlik-texnik hujjatlar paketi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tasarrufidagi tikuvchilik korxonalarida, shu jumladan, «OFS» MChJ, «Al-Hakim Plus» MChJ, «UzPolCharm» MChJ (Buxoro viloyati) korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 2023 yil 30 oktyabrda 03/25-2267-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mahalliy xomashyolardan foydalanish va ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish asosida ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga nisbatan mehnat unumdorligi 13,76% ga oshishiga erishilgan, mehmonxona ishchilari sifatli ofis kiyimi bilan ta'minlangan, ushbu kiyimlar joriy etilgan mehmonxonalarda mehmonlar soni oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shundan 9 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosida muhokama qilingan va ijobiy baholangan. Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan kiyimlar to'plami «Podium-2023» Yosh dizayner modelyerlarning XVI- halqaro tanlovida ishtirok etgan va diplom bilan taqdirlangan (Sochi 4-8 oktyabr 2023 yil).

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi natijalari bo'yicha 26 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan 8 ta O'zR Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda, 5 ta maqola xorijiy jurnallarda, 2 ta monografiya, 2 ta sanoat namunasiga O'zR patenti va bitta elektron dasturiy maxsulotga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligini asoslash, tadqiqotning respublikaning ilm-fan va texnika taraqqiyoti yo'nalishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya ishi bajarilayotgan institutning ilmiy tadqiqotlari bilan bog'liqligi, ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Milliy o'zbek liboslari asosida zamonaviy kiyimlarni loyihalash tamoyillari**» deb nomlangan dissertatsiyasining birinchi bobida an'anaviy milliy libos asosida zamonaviy kiyim loyihalash masalasining bugungi holati tahlil qilingan. An'anaviy milliy kiyim asosida zamonaviy kiyim yaratish dastlabki manbalarni o'rganish, zamonaviy kiyim assortimentining rivojlantirish istiqbollari, kiyim va materiallar assortimentini, uslublarni, moda siluet

shakllarini, konstruksiyalarni, badiiy bezash usullarini bilish zarurligi asoslangan. Turli davlatlarda qo'llanadigan mehmonxona ofis kiyimlarini tahlili asosida ularining dizayni, xususiyatlari aniqlangan. O'zbekiston to'qimachilik bozoridagi korporativ kiyimlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan zamonaviy materiallar assortimenti tahlil etilgan. Olingan ma'lumotlardan keyingi tadqiqotlarda ofis kiyimini ishlab chiqarishda foydalanilgan.

«**Milliy kiyimlarning etnodizaynerlik yechimlari va me'orchilik yodgorliklarining kompozitsion va konstruktorlik elementlarining o'zaro bog'liqligi**» deb nomlangan dissertatsiyasining ikkinchi bobida libos va me'orchilik obidalar o'rasidagi obrazli yechimning o'xshashligi tadqiq qilingan. Milliy kiyim taraqqiyotining har bir davridagi muayyan badiiy uslublar, libos va me'orchilikning stilistik birligi, kiyim elementlari va binolar dekori o'xshashligi asoslangan.



1- rasm. Me'orchilik va libosning hajmli-fazoviy shakllarining o'zaro bog'liqligi

Milliy libos va me'orchilik obidalar naqshlarining bir-biriga o'xshashligi aniqlangan. 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, me'orchilik obidalaridagi va zardo'zlik buyumlaridagi naqshlar bir-biriga juda o'xshash va bir xil nomlanadi. Masalan, "darham", "daurur", "mehrob", "bodom", "buta", «chorbarg» naqshlari ham zardo'zlikda, ham me'orchilik naqshlarida uchraydi.




2-rasm. Me'orchilik obidalarini va zardo'zlik buyumlar naqshlarining o'xshashligi

Retrospektiv tahlil natijasida an'anaviy o'zbek libosidagi elementlar ham erkaklar, ham ayollar liboslarida uchrashi, o'zbek milliy kiyimi nafaqat estetik va amaliy funksiyalarni bajarishi, balki ijtimoiy mavqe ko'rsatkichi va marosimbop kiyim sifatida ham ishlatilganligi aniqlangan. Tadqiqotlar natijasida o'zbek an'anaviy liboslari amaliy, utilitar, estetik, yosh-jinsiy, ijtimoiy, hududiy funktsiyalarga ega bo'lishi hamda zamonaviy kiyimlarni loyihalash uchun asosiy ijodiy manba hisoblanishi aniqlangan.

Naqshni kiyim yuzasida joylanishini tadqiqi natijasida naqshlar buyum yuzasining markazida, chetlarida, burchaklarida va butun maydoni bo'yicha joylanishi, ularni bir-biri bilan birlashish yo'li bilan zamonaviy kiyimda yangi kompozitsiya variantlarini yaratishi mumkinligi aniqlangan. Naqsh turi, texnikasi, uslubi va joylashuvi milliy libos konstruksiyai va kompozitsiyasi elementlariga ta'sir ko'rsatishi ispotlangan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida milliy naqshlar asosida stilizatsiyalashgan naqshlar ishlab chiqilgan bo'lib, unda naqsh kompozitsiyalarini uyg'unlashtirish vositalari va o'xshash elementlarini tanlash asosida milliy kiyimda eng ko'p uchraydigan naqshlar qo'llangan.

“**Milliy an'analrni qo'llagan holda mehmonxonaxodimlari uchun zamonaviy ofis kiyimini ishlab chiqish**” nomli dissertatsiyasining uchinchi bobida mehmonxonaxodimlari uchun zamonaviy ofis kiyimini ishlab chiqish maqsadida iste'molchilar o'rtasida o'tkazilgan anketali so'rovnoma natijalari keltirilgan. So'rovnomada 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan jami 100 nafar (erkak va ayol) Buxoro shahridagi mehmonxonaxodimlari, tikuvchilik sohasining yetakchi mutaxassislari va shaxrimizga keladiga chet ellik mehmonlar ishtirok etgan (3-rasm).



Afzal ofis kiyimi turlari: a - ayollar uchun; b-erkaklar uchun

Afzal materiallar: c - ayollar uchun; d-erkaklar uchun


Afzal dekorativ bezaklar: e - ayollar uchun; f-erkaklar uchun

3-rasm. Respondentlar tomonidan afzal ko'rilgan ofis kiyimi xususiyatlari


O'tkazilgan tadqiqotlar asosida ofis kiyimiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Respondent ayollarning aksariyati pidjak va yubkadan iborat kostyum ko'rinishidagi ofis kiyimini afzal ko'rgan (25%), yozda –jilet va yubka (31%). Erkaklar pidjak va shimlardan iborat kostyum ko'rinishidagi ofis kiyimlarini afzal

ko'rganlar (45%), yozda–nimcha va shim (42%). Matolarning afzal ko'rgan turlaridan respondentlarning aksariyati kostyumbop matolarini afzal ko'rishgan: ayollar (64%) va erkaklar (68%). Dekorativ bezaklarning afzal ko'rgan turlaridan kompyuter kashtasini ayollar (35%) va erkaklar (37%), milliy matodan bezakni esa ayollar (31%) va erkaklar (29%) afzal ko'rganlar.


Matolarning fizik-mexanik va gigienik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha tajriba-sinovlar TTYESI ning "CentexUz" sertefikatsion -sinov laboratoriyasida o'tkazilgan, natijalar 4-rasmda keltirilgan.




a. Mato havoo'tkazuvchanligi, dm³/m²s




b. Matolarning gigroskopikligi, %




c. Matolarning gijimlanishi, %



d. Matolarning uzish yuklamasi, N



e. Matolarning ishqalinishga chidamligi, sikl



f. Matolarning yuza zichligi, g/m²

4- rasm. Materiallarning fizik-mexanik va gigienik xossalarini aniqlash natijalari

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari mahalliy matolar yuqori havoo'tkazuvchanlik, gigroskopiklik ko'rsatkichlariga ega ekanligini, ularning ishqalanishga chidamligi va uzish yuklamasiga chidamligi import matolardan past emasligi, narx jihatdan esa import matolrdan ancha arzon turishini inobatga olgan holda Farg'ona "Uzwoolentex" QK mahalliy to'qimachilik korxonasi ishlab chiqilgan 65% - jun,

35% - poliester tolalaridan tashkil topgan 2726- artikulli hamda 48%- jun, 52%- polyester tolalaridan tashkil topgan 2997- artikulli kostyumbop matolari tanlab olingan.

Ishning keyingi bosqichida loyihalana yotgan korporativ kiyimning yangi modellarini yaratish va konstruksiyasini ishlab chiqishda aynan shu matolardan foydalanilgan.



5-rasm. Mehmonxonaxodimlarining ofis kiyimi modellari:

a)-yozgi ofis kiyim b)-“So’zangaron” va “Poyi Kalon” mehmonxonaxodimlari ofis kiyimi; c)-“Atlas” mehmonxonaxodimlari ofis kiyimi


Mehmonxonaxodimlari (erkaklar va ayollar) ofis kiyimining yangi modellari ishlab chiqilgan bo’lib, ularni eskizlarini yaratish "CorelDRAW" kompyuter grafikasi yordamida amalga oshirilgan. Mehmonxonaxodimlari uchun ishlab chiqilgan yangi ofis kiyimlar modellariga O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sanoat namunasiga patentlari olingan (№SAP 02377"Me hmonxonaxodimlari uchun ayollar ofis kiyimi to’plami" va SAP 02378"Me hmonxonaxodimlari uchun erkaklar ofis kiyimi to’plami"). Me hmonxonaxodimlari ofis kiyimi konstruksiyasini qurish maqsadda mehmonxonaxodimlarining mehnat jarayonida eng ko’p bajaradigan ergonomik izlanishlar amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijasida ishchi harakatlar bajarish jarayonida tananing “Orqa kengligi” o’lchami 0,5 sm dan 5,92 sm gacha, “Ort tomondan bo’yin nuqtasidan bel chizig’igacha tana uzunligi” o’lchami 0,65 sm dan 5,49 sm gacha “II- chi ko’krak aylanasi” o’lchami 0,16 sm dan 5,78 sm gacha o’zgarishi aniqlan. Aniqlangan dinamik effektlar qiymatlari asosida ofis kiyimi to’kisligi uchun qo’shimcha haqlar qiymatlari tanlab olingan (1-jadval).

“YESM va D” kafedrasida olib borilgan tajribalar ko’rsatdiki, yaxlit bichilgan yenglar bichimida kiyimning shakli, eng avvalo, yelka chizig’i qiyaligiga nisbatan yengni egilish burchagiga bog’liq. Yengni egilish burchagi qanchalik kam bo’lsa, yeng boshi balandligi shuncha kichik, yeng o’ mizl darajasidagi yeng kengligi esa katta bo’ladi. Shu bilan birga buyum shakli yumshoqroq bo’ladi va qo’ltiq osti sohasidagi burmalar yo’qoladi. Qo’lning pastki qirqimi qanchalik uzun bo’lsa, qo’l harakati erkinligi shunchalik yaxsilanadi (6-rasm).

Mehmonxona xodimlarining mehnat jarayonida eng ko'p bajaradigan ergonomik harakatlari va gavda o'lchamlarining dinamik effektlari

O'lcham belgisi nomi	Dinamik effekt, $d_j = x_j(d) - x_i(s)$, sm			
	Dinamik holatlar	 №1	 №2	 №3
Orqa yelka kengligi		0,5	4,03	5,92
Ort tomondan bo'yin nuqtasidan bel chizig'i gacha tana uzunligi		0,65	1,52	5,49
II- chi ko'krak aylanasi		0,16	0,22	5,78



6-rasm. Yaxlit bichilgan yangi ayollar kiyimida old va ort bo'lak yengining qiyalik burchagining o'zgartirishi (a-old bo'lak, b- ort bo'lak)


Tajribada yaratilgan konstruktiv yechimlarining barcha variantlarida YEMKO SEV metodikasi asosida qurilgan o'tkazma yangi BKda quyidagi ketma-ketlikda loyihalashtirilgan: qo'shimchalar tanlash, old va ort detallar andazasini o'zgartirish, kiyim muvozanatini o'zgartirish.

Ergonomik izlanishlar asosida aniqlangan qo'shimcha haqlardan foydalangan holda ishlab chiqilgan konstruksiyada quyidagi o'zgartirishlar kiritilgan:

- ko'krak chizig'i bo'yicha kiyim erkinligi uchun qo'shimcha haq miqdori 14 sm qabul qilingan;
- tunikasimon bichimli yenglarning yelka chizig'iga nisbatan yengning hosil qilgan burchak qiymati 60° ga teng qabul qilingan;
- ort bo'lak yoqa o'mizining balandligi 0,5 sm ga ko'tarildi;
- ort bo'lak yelka chizig'ining uchi nuqtasi 1,5 sm ga ko'tarilgan;
- muvofiq ravishda old bo'lak yelka chizig'i balandligi 1 sm ga ko'tarilgan;
- old bo'lak ko'krak vitochkasining chuqurligi 45% qisqartirilgan.

Tikuvchilik sanoatida qo'llanilayotgan usullarni tahlil qilishda YEMKO SEV, ingliz, nemis konstruksiyalash usullari ko'rib chiqilgan. Mazkur tadqiqotda ushbu konstruksiyalash usullari maketlar yordamida tekshirilgan. Natijalarga ko'ra, YEMKO SEV konstruksiyalash usuli ko'rib chiqilayotgan chet el usullari kabi yaxshi statik va dinamik muvofiqlikni ta'minlagan. Shuning uchun, ayollar ofis

kiyimi pidjagini konstruksiyasi parametrlarini takomillashtirish uchun YEMKO SEV metodikasi tanlangan. 164-96-100 o'lcham uchun 5 dona maket namunalari tayyorlangan va ularning konstruksiyasining dinamik muvofiqligini aniqlash uchun YE.B. Koblyakova metodikasi asosida ergonomik stenddan foydalangan holda parametrlari tekshirilgan (7-rasm).



7-rasm. Qo'l harakatlari erkinligi ko'rsatkichi bo'yicha maket namunalari konstruksiyasini dinamik muvofiqligini ergonomik stendda aniqlash: a- o'mizga o'tkazma yangli kiyim; b- yaxlit bichilgan yangli kiyim


Ratsional konstruksiyani ishlab chiqish uchun quyidagi konstruktiv parametrlar tanlangan:

x_1 – kiyimning orqa kengligiga beriladigan qo'shimcha haq $P_{sh_{sp}}$ (sm);


x_2 –kiyimning ko'krak aylanasiga beriladigan qo'shimcha haq P_g (sm);

x_3 – yaxlit bichilgan yangni yuqori qirqimining bo'yin asosi nuqtasiga nisbatan hosil qiladigan qiyalik burchagi α (grad);


Chiquvchi faktorlar Y_1 – ofis kiyimi (pidjak) kiygan insonning qo'l harakatlarining erkinligi, grad; Y_2 – ofis kiyimi (pidjak) kiygan insonning qo'l harakatlari jarayonida pidjak etakining siljishi (sm) olingan.




8-rasm. kiyimning orqa kengligiga beriladigan qo'shimchaning ofis kiyimi (pidjak) kiygan insonning qo'l harakatlarining erkinligiga bog'liqlik grafifi




9-rasm. kiyimning ko'krak aylanasiga beriladigan qo'shimcha haqning ofis kiyimi (pidjak) kiygan insonning qo'l harakatlarining erkinligiga bog'liqlik grafifi




10-rasm. Yaxlit bichilgan yeng yuqori qirqimining bo'yin asosi nuqtasiga nisbatan qiyalik burchagining insonning qo'l harakatlarning erkinligiga bog'liqlik grafigi



11-rasm. Yaxlit bichilgan yeng yuqori qirqimining bo'yin asosi nuqtasiga nisbatan qiyalik burchagining insonning qo'l harakatlari jarayonida pidjak etakining siljishi grafigi



12-rasm. Yaxlit bichilgan yeng yuqori qirqimining bo'yin asosi nuqtasiga nisbatan qiyalik burchagining insonning qo'l harakatlari jarayonida pidjak etakining siljishiga bog'liqlik grafigi



13-rasm. Yaxlit bichilgan yeng yuqori qirqimining bo'yin asosi nuqtasiga nisbatan qiyalik burchagining insonning qo'l harakatlari jarayonida pidjak etakining siljishiga bog'liqlik grafigi

8-rasmda yaxlit bichilgan yeng yuqori qirqimining bo'yin asosi nuqtasiga nisbatan qiyalik burchagining ofis kiyimi (pidjak) kiygan insonning qo'l harakatlarning erkinligiga ta'sirida birinchi chiziqda kiyimning qo'l harakatlarning erkinligi 70 (grad) dan 91 (grad), ikkinchi oraliq chiziqda 70 (grad). Ofis kiyimi (pidjak) kiygan insonning qo'l harakatlarning erkinligining regressiya tenglamasi: $Y = 85,3 + 7,3X_1 + 5,6X_2 + 6,6X_3 + 3,1X_1X_2 - 1,3X_1X_3 - 0,6X_2X_3 - 3,1X_1X_2X_3$


Ofis kiyimi (pidjak) kiygan insonning qo'l harakatlari jarayonida pidjak etakining siljishining regressiya tenglamasi:

$$Y = 2,7 + 0,3X_1 + 0,2X_2 + 0,2X_3 + 0,2X_1X_2 + 0,1X_1X_3 + 0,4X_2X_3 - 0,5X_1X_2X_3$$


To'liq omilli tajribalar asosida, ofis kiyimi konstruktiv parametrlarining optimal qiymatlari aniqlangan. Ergonomik izlanishlar asosida aniqlangan qo'shimcha haqlardan foydalangan holda mehmonxona xodimlarining ofis kiyimi konstruktsiyasi va andazalari chizmalari "Jemeny Cad" dasturi yordamida qurilgan.

"Tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tadbqiq etish va iqtisodiy


samarani hisoblash” nomli dissertatsiyasining to‘rtinchi bobida mehmonxona xodimlari ofis kiyimini real sharoitlarda sinovdan o‘tkazish, uning ekspluatatsion xossalari baholash va ishlab chiqarishga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini hisoblashga bog‘ishlangan. Real mehnat sharoitlarida tajriba-sinov jarayonida ishlab chiqilgan ofis kiyimlarining ekspluatatsion xossalari samaradorligini aniqlash maqsadida 2024 yil 2 apreldan 20 avgustga qadar 6 oy davomida Buxoro shahrining "PoyiKalon", “Atlas”, “OldBukhara”, “So‘zangaron” mehmonxonalarida real sharoitlarida sinovlar o‘tkazilgan.




a- Uzish yuklamasining (tanda) tozalashlar soniga bog‘liqligi



b- Uzish yuklamasining (arqoq) tozalashlar soniga bog‘liqligi



c- Rangni ishqalinishga chidamligining tozalashlar soniga bog‘liqligi



d- Matolarning ishqalinishga chidamligining tozalashlar soniga bog‘liqligi

14-rasm. Ofis kiyimi materiallarining ekspluatatsion xossalari kimyoviy tozalashlar soniga bog‘liqligi

Tadqiqot natijalari yangi ofis kiyimi sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha mavjud ofis kiyimdan ustun turishini ko‘rsatgan. Ofis kiyimida qo‘llangan materiallar uzish yuklamasiga va ishqalanishga chidamligi, rangining o‘zgarishligi kabi ijobiy xossalari yo‘qotmagan.

Ishlab chiqilgan mehmonxona xodimlari ofis kiyimi konstruktorlik-texnik hujjatlari «O‘zto‘qimachilik sanoati» uyushmasi tasarrufidagi tikuvchilik korxonalarida, jumladan, «Al-Hakim Plus» MChJ, «OFS» MChJ, «UzPolCharm» MChJ, «Delta Rumino» MChJ (Buxoro viloyati) korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan. Iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari hisobi ko‘rsatkichi, maxsulot tannarxi 5954,0 so‘mga kamaygan, maxsulot birligi baxosi 250295,0 so‘mni, birlik maxsulot foydasi esa 37267,0 so‘mni tashkil etgan. Iqtisodiy samaradorlik 595400 so‘mni tashkil etgan.

UMUMIY XULOSA

1. O‘zbek milliy madaniyatni o‘rganish jarayonida xalq liboslari shaklining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar va bichish tamoyillari, milliy libosning utilitar va axborot-estetik vazifalarining tashqi atrof- muhit bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

2. Milliy kiyimning an'anaviy bichim va bezaklar elementlarini o'rganish, rivojlangan davlatlar mehmonxona xodimlarining ofis kiyimi konstruktiv-dekorativ elementlarini tahlil etish, iste'molchilar imtiyozlarini anketali so'rov orqali aniqlash natijasida mehmonxona xodimlarining ofis kiyimiga qo'yiladigan ilmiy asoslangan talablar ishlab chiqilgan.

3. Mehmonxona xodimlari ofis kiyimning yangi modellari ishlab chiqilgan bo'lib, ularni eskizlarini yaratish "CorelDRAW" kompyuter grafikasi yordamida amalga oshirilgan, ularga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sanoat namunasiga patentlari olingan (№SAP 02377 "Mehmonxona xodimlari uchun ayollar ofis kiyimi to'plami" va SAP 02378 "Mehmonxona xodimlari uchun erkaklar ofis kiyimi to'plami").

4. Ergonomik izlanishlar asosida aniqlangan qo'shimcha haqlardan foydalangan holda mehmonxona xodimlarining ofis kiyimi konstruksiyasi va andazalari chizmalari "Gemini CAD Systems" dasturi yordamida qurilgan.

5. To'liq omilli tajribalar asosida, ofiskiyimikonstruktiv parametrlarining optimal qiymatlari aniqlandi. Umumiy grafiklar tahlili va olingan regressiya tenglamasi ekstremunga yechilib, ofis kiyimining insonni qo'l harakatlari erkinligini ta'minlovchi konstruktiv parametrlarining maqbul qiymatlari topilgan.

6. Real sharoitlarda tajribalar davomida yangi ofis kiyimlari ko'p martali yuvishlar va kimyoviy tozalashlar natijasida o'z shaklini yo'qotmaganligi, qo'llangan materiallar ishqalanishga chidamligi, havoo'tkazuvchanligi, rangining o'zgarماسligi kabi ijobiy xossalarini saqlab qolgani, ba'zi ko'rsatkichlari esa, masalan, matoning gigroskopikligi yanada yaxshilangani aniqlangan.

7. Iqtisodiy samaradorlik 595400 000 so'mni tashkil etgan, maxsulot tannarxi 5954,0 so'mga kamaygan, maxsulot birligi baxosi 250295,0 so'mni, birlik maxsulot foydasi esa 37267,0 so'mni tashkil etgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/29.10.2021.Т.101.03 ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЗАКИРЯЕВА НОДИРА ГАФУРОВНА

**ИССЛЕДОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СТИЛЯ И ДЕКОРАТИВНЫХ
ЭЛЕМЕНТОВ С ЦЕЛЬЮ ИХ ПРИМИНЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ
ОДЕЖДЕ (НА ПРИМЕРЕ ОФИСНОЙ ОДЕЖДЫ РАБОТНИКОВ
ГОСТИНИЦ)**

05.06.04 – Технология швейных изделий и дизайн костюма

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № В2023.4.PhD/T4272

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском(резюме)) размещен на веб-странице Научного совета Бухарского инженерно-технологического института (www.bmti.uz) и на информационно - образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Ташпулатов Салих Шукурович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Муминова Умида Тохтасиновна
доктор технических наук, профессор

Чориева Мухаббат Мухаммадовна
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

Наманганский институт текстильной промышленности

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/29.10.2021.T.101.03 при Бухарском инженерно-технологическом институте. (Адрес: 1001118, г.Бухара, ул.Каюма Муртазоева 15, Административное здание Бухарского инженерно-технологического института. Тел. +998-65-223-78-84, факс +998-65-223-78-84, E-mail: bmti_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (диссертация зарегистрирована за №___) (Адрес: 100118, г.Бухара, ул.Каюма Муртазоева 15, Тел. +998-65-223-78-84)

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года
(Протокол рассылки №___ от «___» _____ 2024 года)

Х.К.Рахмонов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

Р.Х. Нурбоев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат технических наук, профессор

С.С.Мусаев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, кандидат технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой практике обеспечение высокого качества швейной продукции тесно связано с качеством задач, реализуемых на этапах швейного производства. Особое внимание уделяется применению инновационных техник и технологий при производстве швейно-трикотажных изделий, обеспечивающих высокое качество готовой продукции и соответствие требованиям мировых стандартов. В настоящее время проводятся ряд мер, направленных на “...доведение экспортного потенциала отрасли до 5 миллиардов долларов США путем широкой государственной поддержки текстильной и швейно-трикотажной промышленности, повышение уровня использования производственных мощностей швейно-трикотажной продукции с 65 до 81 процентов, обеспечение занятости 35 тысяч свободных рабочих мест”. В этом направлении такие страны, как Франция, Италия, Китай, Турция, Россия являются лидерами по производству и экспорту готовой продукции широкого ассортимента. Особое внимание уделяется созданию и внедрению в производство новых видов швейной продукции, повышению ее качества, снижению ее себестоимости за счет снижения расхода сырья.

В мире при производстве швейных изделий проводятся научно-исследовательские работы, направленные на производство научно обоснованных методов и технологий на основе выявления важных факторов, влияющих на технологические процессы. Кроме того, разработка офисной одежды для различных компаний направлена, с одной стороны, на создание удобств для пользователей и увеличение срока эксплуатации, а с другой стороны, на повышение имиджа компании, что делает решение данных вопросов необходимым. При этом особое внимание уделяется использованию импортозамещающих отечественных материалов с высокими гигиеническими и эксплуатационными характеристиками для обеспечению качества одежды, внедрению в производство научно-обоснованных технологий, снижению себестоимости продукции и полной удовлетворенности потребностей внутреннего рынка.

В нашей Республике проводится комплекс мероприятий, направленных на организацию производства текстильной и швейно-трикотажной продукции широкого ассортимента и качества, развитие ее на основе местного сырья, в том числе повышение экспортного потенциала отечественных производителей. В Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП № 158 от 11 сентября 2023 года “Стратегия Развития нового Узбекистана на период до 2030 года” намечены важные задачи, в частности, “...повышение конкурентоспособности национальной экономики за счет создания экономически эффективной продукции, пользующейся спросом, с внедрением новых современных технологий, а также эффективного использования отечественного сырья..”². В связи с этим, большое значение имеет создание

²Постановление Президента Республики Узбекистан № 158 от 11 сентября 2023 года “О Стратегии Развития нового Узбекистана на период до 2030 года”

